

Излаш



[Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[ILOVA](#)
[Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazining TUZILMASI](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 640-son

Кучга кириш санаси

12.10.2021

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING NANOTEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish, amaliy tUSDagi loyihalar bajarilishini yo'lga qo'yish orqali nanotexnologiyalar sohasida innovatsiyalarni yaratish hamda ilmiy tadqiqotlarning ta'lim bilan integratsiyasini yanada kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror kiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining O'zbekiston Milliy universitetining Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bulgan davlat muassasasi shaklidagi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazini (keyingi o'rinlarda — Markaz) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

nanotexnologiyalar rivojlanishining zamonaviy jahon tendensiyalarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish;

nanotexnologiyalar sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning shakllantirilgan ustuvor yo'nalishlarida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti fakultetlari, laboratoriyalari va boshqa bo'linmalarining ilmiy hamda pedagogik xodimlaridan vaqtincha ijodiy jamoalar tashkil qilish orqali fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot hamda innovatsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish;

xorijiy oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda nanotexnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni bajarishda hamkorlikni tashkil qilish hamda Markazda bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarga xorijiy olimlarini jalb qilish;

Markaz mutaxassislarining xorijdagi yetakchi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida stajirovkasini, halkaro ilmiy konferensiyalar va simpoziumlarni tashkil qilish hamda o'tkazish orqali nanotexnologiyalar rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

fundamental va amaliy ilm-fanning ta'lim jarayoni bilan integratsiyasi buyicha loyihalarni ishlab chiqish va bajarish, shu jumladan, nanotexnologiyalar sohasida ilmiy tadqiqotlarga va ishlanmalarni yaratishga talabalarni jalb etish hamda Markaz laboratoriyalarining ilmiy asbob-uskunalarida o'quv-tadqiqot, laboratoriya va kurs ishlarini bajarish, bakalavriat va magistratura talabalarining ishlab chiqarish, diplomoldi amaliyotlarini utkazish, doktorantlarning ilmiy tadqiqotlarni bajarishini ta'minlash.

3. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazining tuzilmasi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansii.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektoriga, zarur xollarda, Markaz tuzilmasiga xodimlarning tasdiqlangan umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

Markaz O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

Markaz direktori Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Markazning ilmiy va rahbar xodimlarining lavozim maoshlari budjet mablag'lari hisobiga ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi ilmiy muassasalarning ilmiy va rahbar xodimlarining bazaviy lavozim maoshiga, boshqa xodimlarning lavozim maoshlari esa — O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan lavozim maoshlariga tenglashtiriladi;

mazkur qarorda nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirish 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida, 2022-yildan boshlab esa — O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

5. Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, xo'jalik faoliyati va shartnomalar asosida xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalar uchun tanlovlar asosida ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, xalqaro moliya va xorijiy tashkilotlarning grantlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

bir oy muddatda Markazning yangilangan ustavi tasdiqlanishini hamda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin;

uch oy muddatda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazining ilmiy-innovatsion faoliyatini tashkil etish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda Markaz faoliyatini tashkil qilish uchun xalqaro moliya institutlarining grantlarini jalb qilish choralari ko'rsin.

7. Markaz Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy manzilidagi Fizika fakulteti binosiga tekin foydalanish huquqi asosida vaqtincha joylashtirilsin.

Belgilab quyilsinki, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti hududida amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakultetining 2 500 o'ringa mo'ljallangan yangi o'quv binosi qurib bitkazilganidan sung, Markaz ushbu binoda tekin foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi.

8. Markazga bitta yengil xizmat avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazini tashkil etish to'g'risida" 2018-yil 27-apreldagi 311-son [karori](#) o'z kuchini yuqotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.X. Toshkulov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 12-oktabr,
640-son


Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 12-
oktabrdagi 640-son [karoriga](#)
ILOVA

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazining

TUZILMASI

[Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[ILOVA](#)
[Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazining TUZILMASI](#)



Xodimlarning umumiy cheklangan soni (xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlardan tanqari) — 19 nafar.

* Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni oliy ta'lim muassasalarida belgilangan me'yorlarga ko'ra aniqlanadi.

Ilmiy xodimlar bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlar hajmidan kelib chiqqan holda shartnoma asosida jalb qilinadi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 09/21/640/0957-son)